



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



XORAZM VILOYATIDAGI  
KORXONA VA TASHKILOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya Vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bунyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023- yil 1- sentabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 26 704 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 23 496 ta).

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

**Faoliyat ko‘rsatayotgan**

**Ro‘yxatdan o‘tgan**



# 1- BO'LIM. XORAZM VILOYATI BO'YICHA KORXONA VA TASHKIOTLARNING SONI

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2023- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda



### Yillar kesimida soni

2023		4 535
2022		3 941
2021		3 178
2020		3 427
2019		3 780

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 594 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha oxirgi uch yil mobaynida ma'suliysi cheklangan jamiyatlar 1 224 taga, xususiy korxonalar 278 taga ko'paygan.

### Hududlar kesimida


Urganch sh.	584	11,5%	Yangiariq t.	329	20,2%
Shovot t.	464	26,7%	Xonqa t.	259	12,8%
Urganch t.	453	15,7%	Xiva t.	290	15,7%
Qo'shko'pir t.	399	19,3%	Xiva sh.	279	13,3%
Bog'ot t.	399	21,2%	Yangibozor t.	254	19,9%
Gurlan t.	376	20,7%	Tuproqqal'a t.	116	15,9%
Hazorasp t.	333	20,6%			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda


## Yillar kesimida soni

<b>2023</b>		<b>26 704</b>
<b>2022</b>		<b>27 622</b>
<b>2021</b>		<b>24 389</b>
<b>2020</b>		<b>20 591</b>
<b>2019</b>		<b>17 855</b>

## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- sentabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan 8 849 taga oshganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o‘sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 4 693 tadan 9 091 taga (o‘sish 4 398 ta), qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi – 1 540 tadan 2 670 taga (o‘sish 1 130 ta), sanoat – 2 967 tadan 4 020 taga (o‘sish 1 053 ta).


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>5 068</b>	Gurlan t.	<b>1 819</b>
Urganch t.	<b>2 885</b>	Shovot t.	<b>1 771</b>
Xonqa t.	<b>2 026</b>	Yangiariq t.	<b>1 625</b>
Xiva sh.	<b>2 099</b>	Hazorasp t.	<b>1 613</b>
Qo‘shko‘pir t.	<b>2 063</b>	Yangibozor t.	<b>1 278</b>
Bog‘ot t.	<b>1 878</b>	Tuproqqal'a t.	<b>731</b>
Xiva t.	<b>1 848</b>		


# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda

## Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida, yildan-yilga ularning investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2023- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 466 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 448 tani;
- yirik korxonalar 18 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	<b>557</b>	11,0%	Hazorasp t.	<b>330</b>	20,5%
Shovot t.	<b>461</b>	26,0%	Xonqa t.	<b>256</b>	12,6%
Urganch t.	<b>447</b>	15,5%	Xiva t.	<b>285</b>	15,4%
Qo‘siko‘pir t.	<b>396</b>	19,2%	Xiva sh.	<b>275</b>	13,1%
Bog‘ot t.	<b>395</b>	21,0%	Yangibozor t.	<b>252</b>	19,7%
Gurlan t.	<b>374</b>	20,6%	Tuproqqa‘t.	<b>110</b>	15,0%
Yangiariq t.	<b>328</b>	20,2%			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

## Yillar kesimida soni

<b>2023</b>		<b>23 631</b>
<b>2022</b>		<b>24 507</b>
<b>2021</b>		<b>21 319</b>
<b>2020</b>		<b>17 624</b>
<b>2019</b>		<b>14 836</b>

## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar


Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- sentabr holatiga 23 631 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,8 foizni tashkil etdi ( 8 795 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 38,5 foiz, sanoat – 17,0 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 11,2 foiz, qurilish – 7,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 4,6 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,2 foiz, boshqa turlari – 11,1 foiz.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	<b>4 377</b>	Gurlan t.	<b>1 605</b>
Urganch t.	<b>2 622</b>	Shovot t.	<b>1 543</b>
Xiva sh.	<b>1 950</b>	Yangiariq t.	<b>1 449</b>
Xonqa t.	<b>1 807</b>	Hazorasp t.	<b>1 393</b>
Qo‘siko‘pir t.	<b>1 842</b>	Yangibozor t.	<b>1 116</b>
Xiva t.	<b>1 652</b>	Tuproqqa‘a t.	<b>613</b>
Bog‘ot t.	<b>1 662</b>		

*2023- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda*

### Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat




Savdo



Axborot va aloqa



Qurilish



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Sog‘lijni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

2023- yil yanvar-avgust oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 1 348 tadan 1 911 taga (o‘sish 563 taga), tashish va saqlashda – 163 tadan 280 taga (o‘sish 117 taga), qurilishda – 134 tadan 169 taga (o‘sish 35 taga) ko‘paydi.

### Hududlar kesimida


Urganch sh.	<b>557</b>	<b>8,8%</b>	Hazorasp t.	<b>330</b>	<b>0,9%</b>
Shovot t.	<b>461</b>	<b>52,1%</b>	Xonqa t.	<b>252</b>	<b>95,8%</b>
Urganch t.	<b>446</b>	<b>10,4%</b>	Xiva t.	<b>283</b>	<b>2,5%</b>
Qo‘siko‘pir t.	<b>395</b>	<b>19,0%</b>	Xiva sh.	<b>275</b>	<b>14,6%</b>
Bog‘ot t.	<b>394</b>	<b>18,7%</b>	Yangibozor t.	<b>249</b>	<b>28,4%</b>
Gurlan t.	<b>368</b>	<b>21,5%</b>	Tuproqqal‘a t.	<b>110</b>	<b>4,8%</b>
Yangiariq t.	<b>328</b>	<b>26,6%</b>			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

### Yillar kesimida soni

<b>2023</b>		<b>23 496</b>
<b>2022</b>		<b>24 376</b>
<b>2021</b>		<b>20 148</b>
<b>2020</b>		<b>17 522</b>
<b>2019</b>		<b>14 747</b>

### Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (18,4 foiz), Urganch tumani (11,1 foiz), Xiva shahri (8,3 foiz), Qo‘shko‘pir (7,8 foiz) va Xonqa (7,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 76,1 foizi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>4 327</b>	Gurlan t.	<b>1 598</b>
Urganch t.	<b>2 610</b>	Shovot t.	<b>1 537</b>
Xiva sh.	<b>1 946</b>	Yangiariq t.	<b>1 442</b>
Qo‘shko‘pir t.	<b>1 836</b>	Hazorasp t.	<b>1 385</b>
Xonqa t.	<b>1 797</b>	Yangibozor t.	<b>1 109</b>
Bog‘ot t.	<b>1 653</b>	Tuproqqal‘a t.	<b>610</b>
Xiva t.	<b>1 646</b>		

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**  
*2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**


Gurlan t.	391
Urganch t.	324
Qo'shko'pir t.	289
Xonqa	287
Xiva t.	237
Yangiariq t.	223
Bog'ot t.	191
Shovot	184
Yangibozor t.	171
Tuproqqal'a t.	104
Hazorasp t.	100
Xiva sh.	89
Urganch sh.	80



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

**Baliq ovlash va akvakultura**




**O'rmonchilik va yog'och  
tayyorlash**

**Dehqonchilik va  
chorvachilik, ovchilik va  
bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish**

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>700</b>
Urganch t.	<b>446</b>
Qo‘shko‘pir t.	<b>389</b>
Xonqa t.	<b>355</b>
Xiva t.	<b>309</b>
Xiva sh.	<b>300</b>
Shovot t.	<b>260</b>
Bog‘ot t.	<b>259</b>
Gurlan t.	<b>235</b>
Yangiariq t.	<b>223</b>
Hazorasp t.	<b>213</b>
Yangibozor t.	<b>185</b>
Tuproqqal‘a t.	<b>146</b>



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi besh yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o‘sish sur’ati 135,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 15,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 86,1 foiz), 0,5 foizini tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish sur’ati 104,8 foiz), 1,2 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish sur’ati 82,0 foiz) va 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish sur’ati 65,0 foiz) tashkil etgan.

Ishlab chiqarish sanoati

**3 935**

**22**

Tog‘-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash

Suv bilan ta’minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig‘ish  
va utilizatsiya qilish

**50**

**13**


Elektr, gaz, bug‘ bilan  
ta’minlash va havoni  
konditsiyalash

# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>380</b>
Xiva t.	<b>243</b>
Urganch t.	<b>218</b>
Xiva sh.	<b>190</b>
Qo‘siko‘pir t.	<b>147</b>
Xonqa t.	<b>113</b>
Shovot t.	<b>93</b>
Yangiariq t.	<b>90</b>
Gurlan t.	<b>64</b>
Bog‘ot t.	<b>63</b>
Hazorasp t.	<b>59</b>
Yangibozor t.	<b>57</b>
Tuproqqal‘a t.	<b>31</b>



Qurilish sohasining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,7 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 82,6 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 19,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,5 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 24,9 foiz ulushni va 73,4 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

**338**



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

**437**

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

**973**

Bino va  
inshootlar qurish




# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>1569</b>
Urganch t.	<b>1010</b>
Bog‘ot t.	<b>788</b>
Xiva sh.	<b>718</b>
Hazorasp t.	<b>659</b>
Shovot t.	<b>651</b>
Qo‘siko‘pir t.	<b>643</b>
Xonqa t.	<b>606</b>
Yangiariq t.	<b>602</b>
Gurlan t.	<b>581</b>
Xiva t.	<b>565</b>
Yangibozor t.	<b>473</b>
Tuproqqal‘a t.	<b>226</b>



Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 072 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 65,1 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 105,5 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishi 23,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 107,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishi 11,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 119,5 foizni tashkil etdi.

**1037**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**2 132**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


**5 922**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>387</b>
Xiva sh.	<b>273</b>
Urganch t.	<b>166</b>
Xonqa t.	<b>98</b>
Shovot t.	<b>95</b>
Gurlan t.	<b>92</b>
Bog'ot t.	<b>88</b>
Yangibozor t.	<b>84</b>
Qo'shko'pir t.	<b>77</b>
Xiva t.	<b>75</b>
Yangiariq t.	<b>69</b>
Hazorasp t.	<b>58</b>
Tuproqqal'a t.	<b>41</b>



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 138,7 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,8 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,2 foiz ulushini tashkil etdi.

**237**

**Yashash bo'yicha xizmatlar**

**1 366**


**Oziq- ovqat va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar**



*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida


Urganch sh.	<b>115</b>
Xiva sh.	<b>46</b>
Xonqa t.	<b>35</b>
Gurlan t.	<b>26</b>
Xiva t.	<b>25</b>
Qo‘shko‘pir t.	<b>24</b>
Urganch t.	<b>22</b>
Yangiariq t.	<b>22</b>
Shovot t.	<b>22</b>
Bog‘ot t.	<b>17</b>
Hazorasp t.	<b>10</b>
Yangibozor t.	<b>7</b>
Tuproqqał'a t.	<b>6</b>



2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,8 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,2 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 34,2 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 91,4 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 43,0 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 100,6 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>211</b>
Xiva sh.	<b>52</b>
Urganch t.	<b>49</b>
Xonqa t.	<b>44</b>
Gurlan t.	<b>39</b>
Xiva t.	<b>36</b>
Hazorasp t.	<b>34</b>
Shovot t.	<b>34</b>
Qo'shko'pir t.	<b>28</b>
Yangiariq t.	<b>26</b>
Bog'ot t.	<b>26</b>
Yangibozor t.	<b>20</b>
Tuproqqa'l'a t.	<b>8</b>



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 524 ta yoki 86,3 foiz ulushi kichik tadbirdorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:


- sog'liqni saqlash yo'nalishiga 94,2 foiz korxonalar to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,9 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,8 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 92,0 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,0 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 140,0 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	<b>223</b>
Hazorasp t.	<b>155</b>
Xonqa t.	<b>113</b>
Urganch t.	<b>111</b>
Bog‘ot t.	<b>81</b>
Shovot t.	<b>77</b>
Qo‘shko‘pir t.	<b>72</b>
Xiva sh.	<b>68</b>
Gurlan t.	<b>68</b>
Xiva t.	<b>47</b>
Yangiariq t.	<b>38</b>
Yangibozor t.	<b>23</b>
Tuproqqał'a t.	<b>16</b>




2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 4,0 foizni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati 111,8 foizni tashkil etdi;
- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 119,1 foizni;
- pochta va kuryerlik yo‘nalishi 2 marta oshdi;
- havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 3,3 marta oshdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo'yicha umumiylumot  
2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Mas’uliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlarini bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlarini qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlarini bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.


### Hududlar kesimida

Urganch sh.	407	Shovot t.	174
Hazorasp t.	302	Xiva t.	203
Qo‘shko‘pir t.	311	Xiva sh.	175
Gurlan t.	307	Xonqa t.	134
Urganch t.	302	Tuproqqal‘a t.	101
Yangiariq t.	275	Yangibozor t.	105
Bog‘ot t.	251		


2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 23 631 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 13 521 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdoda – 116,5 foiz, yashash va ovqatlanish 116,0 foiz, tashish va saqlashda – 114,0 foizni axborot va aloqada – 113,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 113,2 foiz, tashkil etdi.

### Hududlar kesimida


Urganch sh.	2 536	Xiva t.	947
Urganch t.	1 361	Bog'ot t.	926
Hazorasp t.	1 139	Xonqa t.	785
Gurlan t.	1 109	Shovot t.	673
Xiva sh.	1 076	Tuproqqal'a t.	520
Qo'shko'pir t.	1 063	Yangibozor t.	395
Yangiariq t.	991		

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

2023- yil yanvar-avgust oylarida axborot va aloqa yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 183 taga, qurilishda 36 taga, yashash va ovqatlanishda 29 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida

Shovot t.	213	Urganch t.	45
Yangibozor t.	104	Xiva sh.	22
Urganch sh.	86	Hazorasp t.	13
Bog‘ot t.	80	Xiva t.	4
Xonqa t.	76	Yangiariq t.	3
Qo‘sisko‘pir t.	51	Tuproqqal‘a t.	1
Gurlan t.	51		

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 4,3 foizga ko'paygan.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining 2019- yilning mos davriga nisbatan ko'payishiga savdo (125,7 foiz), tashish va saqlash (121,5 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohalari (110,8 foiz), tumanlar kesimida esa – Shovot (193,0 foiz), Bog'ot (139,9 foiz), Qo'shko'pir (129,0 foiz) Yangibozor (131,8 foiz) , Qo'shko'pir (129,0 foiz) Xonqa (118,9 foiz), tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

### Hududlar kesimida


Urganch sh.	1 166	Xiva sh.	310
Urganch t.	606	Xiva t.	266
Shovot t.	523	Bog'ot t.	277
Xonqa t.	515	Hazorasp t.	101
Yangibozor t.	417	Yangiariq t.	88
Gurlan t.	361	Tuproqqal'a t.	34
Qo'shko'pir t.	323		

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.


Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

Urganch t.	99	Xonqa t.	42
Xiva t.	78	Yangibozor t.	43
Shovot t.	74	Qo‘shko‘pir t.	34
Xiva sh.	77	Gurlan t.	15
Bog‘ot t.	67	Hazorasp t.	15
Urganch sh.	64	Tuproqqal‘a t.	8
Yangiariq t.	48		

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- sentabgr holatiga ko‘ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 2 654 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi: savdoda – 545 tadan 1 912 taga (o’sish 1 367 taga), sanoatda – 592 tadan 1 222 taga (o’sish 630 taga), yashash va ovqatlanishda – 551 tadan 825 taga (o’sish 274 taga) korxonalar sonining oshishi bilan izohlanadi.

### Hududlar kesimida

Urganch t.	640	Yangiariq t.	352
Urganch sh.	623	Shovot t.	329
Xiva sh.	548	Yangibozor t.	276
Xonqa t.	497	Hazorasp t.	139
Bog‘ot t.	444	Gurlan t.	115
Qo‘shko‘pir t.	440	Tuproqqal'a t.	53
Xiva t.	422		

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi 5 yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 8,4 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 126 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 18,2 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,2 foiz), Turkmaniston (ulushi 7,9 foiz), Xitoy (ulushi 7,4 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 1,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

### Hududlar kesimida

Urganch sh.	52	Yangibozor t.	6
Urganch t.	10	Tuproqqa'l'a t.	5
Xiva t.	8	Yangiariq t.	5
Xiva sh.	8	Qo'shko'pir t.	4
Xonqa t.	7	Hazorasp t.	4
Gurlan t.	7	Bog'ot t.	4
Shovot t.	6		

2023- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda



O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘sni davlatlar bilan yaxshi qo‘snnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 71 tasi qo‘shma korxonalar, 55 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

### xorijiy korxonalar

### qo‘shma korxonalar

**26**

Urganch sh.

**26**

**3**

Xiva sh.

**5**

**2**

Bog‘ot t.

**2**

**3**

Gurlan t.

**4**

**2**

Qo‘shko‘pir t.

**2**

**5**

Urganch t.

**5**

**2**

Hazorasp t.

**2**

**3**

Tuproqqał'a t.

**2**

**3**

Xonqa t.

**4**

**2**

Xiva t.

**6**

**1**

Shovot t.

**5**

**2**

Yangiariq t.

**3**

**1**

Yangibozor t.

**5**

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
bo‘limi  
Tel.: (62) 22-4-65-11